

## **QUR'ONI KARIM TARJIMALARINING TEOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

*Narzullayeva Dilfuza Bafoyevna*

*Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti,*

*Fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi*

[\*d.b.narzullayeva@buxdu.uz\*](mailto:d.b.narzullayeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Qur'oni Karim tarjimalarining teolingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Tezisdagi asosiy maqsad Qur'on matnining turli tillarga tarjima jarayonida yuzaga keladigan tilshunoslik, madaniyat va kontekstual omillarni tahlil qilishdir. Qur'on tarjimalari, o'ziga xos ravishda, nafaqat diniy matn sifatida, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Natijada, ushbu tezis Qur'oni Karim tarjimalarining teolingvistik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali diniy matnlarning tilshunoslik, madaniyat va kontekstual jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Bu tadqiqot nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki Qur'on tarjimasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun ham foydali bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Qur'oni Karim, tarjima, teolingvistika, tilshunoslik, ijtimoiy kontekst, madaniy kontekst, kommunikativ vaziyat, o'zaro bog'liqlik.

### **KIRISH**

Qur'oni Karim, musulmonlar uchun muqaddas kitob bo'lib, uning mazmuni va ma'nolari butun insoniyat uchun ahamiyatlidir. Ushbu matnning turli tillarga tarjima qilinishi, nafaqat diniy, balki madaniy va lingvistik jihatdan ham muhimdir. Tarjima jarayoni, asosan, original matnning ma'nosini va kontekstini to'g'ri aks ettirishni talab qiladi. Biroq, Qur'oni Karim kabi murakkab va chuqur ma'noga ega bo'lgan matnlarni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Teolingvistika — til va din, madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan fan sohasi sifatida, Qur'oni Karim tarjimalarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu soha tarjima jarayonida tilning struktural xususiyatlarini, semantik va sintaktik jihatlarini, shuningdek, madaniy kontekstni hisobga olishga yordam beradi. Qur'oni Karim tarjimalarining teolingvistik xususiyatlarini o'rganish, nafaqat tarjima usullarini aniqlashga, balki turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA**

Qur'oni karim Sharqdagi arab bo'lmagan xalqlar tillariga ham tarjima va tafsir qilina boshlandi. Bunday tarjima va tafsirlardan eng yaxshisi mashhur olim Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning «Mavohib aliyya» («Oliy hadyalar») nomli asardir. Bu asar buyuk shoirimiz Alisher Navoiy iltimosi va moliyaviy yordami bilan yaratilgan va unga tuhfa qilingan. Bu tafsir 500 yil davomida madrasalarda «Tafsiri Husayniy» nomi bilan darslik sifatida qo'llaniladi. 1885-yili toshbosmada chop etilgan. Tafsirda Qur'on so'zma-so'z tarjima qilinib, keyin har qaysi betning yarmidan pastida oyatlar arab tilida qavs ichida jumla yoki bir-ikki so'z bilan beriladi hamda fors tilida sharhlanib, so'ng izohlar bilan tafsir qilinadi. «Tafsiri Husayniy» Muhammad Sodiq ibn Mulla Shoh Ahmad Iymonquli tomonidan tatar tiliga tarjima qilinib, 1911-yilda Qozon ikki jildda nashr etildi. «Tafsiri Husayniy» va uning tatarcha tarjimasi forsiy va turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar tomonidan Qur'onni sharhlar bilan o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Bu kitob 1991-yilning boshlarida Moskvadagi tajriba bosmaxonada «Nur» (keyinchalik «Xazina», «Ruhafzo», hozirda «Shams») nashriyoti tomonidan noshir, olim, yozuvchi Asror Samadning xususiy mablag'i hisobiga qayta chop etildi va Respublikamizda 25 ming nusxada tarqatildi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Qur'onni XII-XIII asrda noma'lum olim eski o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilgan. Tafsirning yagona nusxasi Qarshi shahrida topilgan bo'lib, «XII-XIII asrlarga oid O'rta Osiyo tafsiri» deb yuritiladi. Qo'lyozmaning bosh qismi yo'qolgan, tarjima va tafsir Kahf surasidan boshlanib, Qur'onning oxirigacha davom etgan. Bu nodir tafsir faqat Qur'onning o'zini o'rganish uchungina emas, balki turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar tillari tarixini o'rganishda ham ahamiyatga ega [1].

Rossiyada Qur'oni karimni tadqiq qilish ishlari avvaliga Ovrupa olimlarining tarjimalarini o'girish bilan boshlangan, o'sha paytdagi barcha ruscha tarjimalar fransuz tilidan amalga oshirilgan. Qur'oni karim ma'nolarini ilk marta 1716-yili Pyotr Postnikov ruschaga tarjima qilgan. «Al-Koran o Magomete ili zakon turetskiy» deb nomlangan bu tarjima Sankt-Peterburgda 1716, 1790-yillari ikki marta nashr etilgan. Qur'oni karim ma'nolarining M.Veryovkin qilgan ikkinchi tarjimasi ham «Kniga al-Koran arabyanina Magomeda» nomi bilan 1790-yili ikki jildli qilib Sankt-Peterburgda chop etilgani. Keyinchalik uni A.Kalmikov inglizchadan, atoqli rus shoiri Aleksandr Pushkin va olim K.Nikolay fransuzchadan, D.Boguslavskiy bevosita arabchadan tarjima qilgan [2].

Mustaqillikdan oldingi davrda Qur'oni karim haqida jiddiy izlanishlar olib borganlarning eng e'tiborlisi akademik I.Yu.Krachkovskiy bo'ldi. Uning arabchadan

o'g'irgan va o'limidan so'ng 1963-yili chop etilgan «Koran. Perevod i kommentariya» kitobi [4] 1983 va 1990- yillari qayta nashr etildi. Bulardan tashqari, Qur'oni karimning Valeriya-Imon Poroxova qilgan nazmiy tarjimasini [3], M.Osmanov [6], E.Kuliyev [5] va boshqalarning tarjimalari ham bor. Hozirgi o'zbek tiliga Qur'on va uning ayrim suralarini izohlari bilan tarjima qilish ilk marta Niso surasining bir qismining «Fan va turmush» jurnalida (1989- yil, 8-9-sonlarida) Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasida e'lon qilish bilan boshlandi. «Sharq yulduzi» (1990-yil 3-sonidan boshlab) Alouddin Mansur tomonidan tayyorlangan o'zbekcha izohli tarjimasini e'lon qildi. Alouddin Mansur tarjimasini ancha tuzatish, to'ldirishlar bilan mukammal holga keltirib, 1992-yilda «Cho'lpon» nashriyoti tomonidan kitob holida nashr etildi. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasida, asosan, arab bo'lmagan musulmonlar xizmat qilmoqda. Chunki aynan o'sha kishilar Qur'oni karim ma'nolarini o'z tillariga tarjima qilib bermoqda. Albatta, bu yerda ham nozik muammolar bop. Arab bo'lmagan musulmon xalqlar ichida arab tilini, islomiy ilmlarni yaxshi o'zlashtirganlarning tarjimaga va o'z tillarida yuqori saviyada asar bitishga vaqtlari qolmagan bo'ladi. Aksincha, adib va tarjimonlikni yaxshi egallagan shaxslarda esa arab tili va islomiy ilmlarni yetarlicha o'zlashtirishga vaqt qolmaydi. Ammo shunday bo'lsa ham, Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini bo'yicha sezilarli siljish yuzaga chiqmoqda. Hozirda Qur'oni karim ma'nolari deyarli barcha tillarga tarjima qilingan. Ba'zi tillarda esa bir necha tarjimalar mavjud. Muhammad Hamidullohning ta'kidlashlaricha, urdu tilida Qur'oni Karim ma'nolarining uch yuzdan ortiq tarjimasini, fors va turk tillarida esa yuzdan ortiq tarjimasini bor.

## **XULOSA**

Qur'oni Karim tarjimalarining teolingvistik xususiyatlari, bu jarayonda til, madaniyat va diniy kontekstning o'zaro aloqalarini o'rganishga asoslangan muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, Qur'oni Karim tarjimalarining teolingvistik xususiyatlarini chuqur o'rganish, nafaqat tarjimonlar uchun, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon Qur'on mazmunini yanada aniq va tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi hamda diniy va madaniy muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. Тuzатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: Hilol nashr, 2018. – 616 б.

2. Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Тафсири Ирфон. 1-китоб. – Тошкент: Sharq, 2019. – 736 б.

3. <https://medinaschool.org/library/creed/koran/perevod-korana-porohovoj>

4. <https://quran.com.ua/meal/krachkovskiy>

5. D.B. Narzullaeva History of the translation of the quran into french international conferences 1 (2), 116-118

6. D.B.Narzullaeva Developing the communication competence of french-speaking students through dialogues in the development of oral speech Scientific Journal, 1(10), 53–57.

7. Нарзулаева Д.Б. (2022). ТЕОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ЛЕКСЕМА РЕЛИГИОЗНОГО СТИЛЯ. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 332–338. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/893>